

## BADIIY MATNNING LINGVOPOETIK TAHLILI TAMOYILLARI

**Ma'rufjon Yo'ldoshev**

Filologiya fanlari doktori, professor

[marufcany@gmail.com](mailto:marufcany@gmail.com)

Orcid: 0000-0001-5239-4804

**Annotatsiya.** Til insonning o'z mohiyatini, ruhiyati va faoliyatini turli nuqtayi nazarlardan tadqiq etuvchi eski va yangi fanlarning markaziy, ayni paytda o'ta murakkab o'rganish obyekti sifatida favqulodda o'ziga xos hodisadir. Bu sirli hodisaning bevosita reallashish, namoyon bo'lish tarzi sanalmish yaxlit nutq oqimini bo'laklarga bo'lish, qismlarga ajratish, har bir qism yoki qismchani alohida tasavvur eta bilish, shuningdek, bu qism yoki qismchalar o'rtasidagi mutanosib va hatto nomutanosib munosabatlarni idrok qila olishday bir bosqichga etib kelgunga qadar inson aqli uzoq va mashaqqatli tadrijiy takomil yo'lini bosib o'tganligi shubhasiz. Inson o'zligini ifodalashda aytilgan takomil yo'li jarayonlarida tildan foydalanishning, mazkur nutq parchalarini bir-biri bilan biriktirishning shunday usullarini ham kashf etganki, natijada badiiy nutq deyiladigan mo'jizakor bir vositaning muallifiga aylangan.

**Kalit so'zlar.** Badiiy matn, lingvopoetik tahlil, tamoyillar, intertekstuallik, poetik aktuallashuv.

**Annotation.** Language is a unique phenomenon that serves as a central and, at the same time, extremely complex object of study for both ancient and modern sciences that explore the essence, psychology, and activity of human beings from various perspectives. The division of the continuous flow of speech regarded as the direct realization and manifestation of this mysterious phenomenon into segments, the ability to mentally separate each segment or subsegment, and to perceive the proportional or even disproportionate relations between them, represents a stage of cognitive development that the human intellect has undoubtedly reached through a long and arduous process of gradual evolution. In the course of expressing the self, humanity has discovered ways of using language and connecting these segments of speech in such manners that it has eventually led to the creation of a miraculous medium known as artistic or literary discourse.

**Keywords:** artistic text, linguopoetic analysis, principles, intertextuality, poetic actualization.

Ma'lumki, badiiy matn ijodkorning dunyoni, voqelikni obrazli-estetik idrok qilishi mahsuli sifatida paydo bo'ladi. Badiiy matnning yaratilishi ham, uning o'zi ham, badiiy butunlik sifatida o'quvchi(tinglovchi) tomonidan tushunilishi, idrok etilishi ham murakkab estetik faoliyatdir. Z.I.Xovanskaya bunday estetik faoliyatning asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: 1) muallif niyatining va ijodkor ongida voqelikning estetik in'ikosi natijasida badiiy obrazlarning paydo bo'lishi; 2) badiiy obrazlarning estetik materialda gavdalanishi, ya'ni ularning tegishli san'at turi vositalari orqali moddiylashuvi va estetik faoliyat mahsuli – san'at asarining yuzaga kelishi; 3) san'at asarining omma tomonidan qabul qilinishi, ya'ni estetik idrok jarayoni. Ana shunga asosan, u adabiy faoliyatni shunday munosabatlar zanjiri sifatida tasavvur qilish mumkinligini aytadi, ya'ni: voqelik->yozuvchi->asar->o'quvchi. [Xovanskaya, 1980, 14.] Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida ana shu to'rt halqali zanjir hamisha e'tiborda bo'lmog'i lozim.

Badiiy matnning o'zi benihoya murakkab va uni o'quvchi, idrok etuvchilar tomonidan to'lig'icha bir xil talqin etilishi mumkin bo'lmagan (zarur ham bo'lmagan) hodisa bo'lganligi uchun ham uni lingvopoetik tahlil etishning aniq bir modeli yaratilgan emas. Tilshunoslik va til ta'limi amaliyotida fonetik tahlil, morfologik tahlil yoki sintaktik tahlil kabi tekshirishning aniq tamoyil va usullari turg'unlashgan. Ammo lingvopoetikada hali bu darajaga kelingan emas. Turli o'quv adabiyotlarida badiiy matnning lisoniy tahlili tamoyillari umumiy tarzda tavsiya etilgan. O'zbek filologiyasida M.Yoqubbekova xalq qo'shiqlarining lingvopoetik tahlili tamoyillarini ishlab chiqishga harakat qilgan, aytish mumkinki, bu borada samarador tamoyillarni belgilashning uddasidan chiqqan. [Yoqubbekova, 2005, 26-31.] Bizning kuzatishlarimizga ko'ra, badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Badiiy asar, demakki, badiiy matn ham shaklan, ham mazmunan mutlaqo o'ziga xos bo'lgan murakkab va serqatlam estetik butunlikdir. Unda mazmun qanchalik muhim bo'lsa, shakl ham shunchalik favqulodda ahamiyatlidir. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, ba'zan shakl hatto mazmun darajasiga ko'tarilishi, mazmun maqomini olib, haqiqiy mazmunning qimmatiga (badiiyat maqsadi taqozosi bilan) daxl qilishi ham mumkin. Albatta, tabiat va jamiyatning, kattadir-kichikdir, har bir hodisasida hamisha u yoki bu tarzda namoyon bo'ladigan shakl va mazmunning dialektik birligi qonuniyati badiiy matnga ham begona emas. Ammo bu dialektik qonuniyat chinakam ma'nodagi barkamol badiiy asarda tamoman o'ziga o'ziga xos tarzda, tabiat va jamiyatning boshqa hech bir hodisasiga o'xshamagan holatda yashaydi. Badiiy matndagi tilni faqat shakl, unda ifodalangan voqealar tizmasini mazmun deb qarash, badiiy asardagi shakl va mazmun birligini, mutanosibligini ana shunday dixotomiyadagina tasavvur qilish badiiy so'z san'atining mohiyatini jo'nlashtirishdan boshqa narsa emas.

Badiiy matnda muallifning mazmuni shaklga solishdagi mahorati, bundagi individual xususiyatlar alohida qimmatga ega. V.V.Odinsov haqli ravishda ta'kidlaganidek, badiiy matndagi emotsional-badiiy struktura "tabiiy" (ya'ni tushunchalarning real bog'lanishlari va munosabatlarini aks ettiradigan) mantiqiy strukturalarni transformatsiya qiladi, shuning uchun ham boshqa nutqiy asarlarga qaraganda badiiy asarda shakl juda katta ahamiyatga molikdir. Shaklning bunday ahamiyatligi shunchalik ravshan haqiqatki, hatto faqat she'rdagina emas, balki nasrda ham shaklni o'zgartirish matnni buzish, o'ldirish demakdir tarzidagi gap eskirib, siyqasi chiqib bo'lgan.[Odinsov, 1980, 161.] Ammo shundan kelib chiqqan holda, badiiy matnda shakl birlamchi, mazmun esa ikkilamchi deb bo'lmaydi, ularning har ikkisi ham muhim, faqat ular orasidagi dialektik munosabatning namoyon bo'lish tarzi o'ziga xosdir.

Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida, eng avvalo, ana shu jihat, ya'ni shakl va mazmun birligi birlamchi tamoyil sifatida to'liq nazarda tutilishi lozim. [O'rinboev va boshq., 1990, 13-21]

Yana ta'kidlamoq lozimki, shakl va mazmunning ochiq yoki yashirin muvofiqligi muallif badiiy niyatining aniq va to'la namoyon bo'lishi uchun jiddiy zamindir. Bunda asosiy e'tiborni matn va uning janr xususiyati o'rtasidagi muvozanatga qaratgan holda, matndagi lisoniy birliklarning matn tabiatiga mosligi masalasini ham diqqat markazidan qochirmaslik kerak. Masalan, qahramon ruhiyatidagi g'azablanish holatini ifodalashda siqiq jummalarning ishlatilishi, dag'al va chet so'zlarning qo'llanishi kabilar ham mazkur jihat asosida tekshirilishi mumkin. Yoki muallif nutqini ko'zdan kechiradigan bo'lsak ijobiy qahramon tasvirida ko'tarinki bir ruh, yorqin ranglar va yoqimli ifoda tarzini sezamiz. So'zlar ham shunga mos tanlanadi. Salbiy qahramon tasvirida esa buning teskarisini kuzatamiz. Yuz-ifoda yoki fe'l-atvor tasvirida tund ranglar, bezgin ruh va yoqimsiz ifoda tarzi sezilib turadi. Insonning fe'l-atvori va qiyofasida ham ma'lum ma'noda muvofiqlikning bo'lishi tabiiy hol. Yozuvchilar badiiy asar yaratishda bu muvofiqlikni yanada bo'rttirib, yanada ta'kidlab ifodalashga harakat qiladilar. Shu orqali asarning ishonarliligini ta'minlaydi hamda kitobxon munosabatini shakllantirib boradi.

Mavzu bilan tanlangan janr o'rtasidagi mutanosiblik ham shakl va mazmun birligi tamoyili asosida tekshirilganda xolis xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

2. Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari tekshirilayotganda undagi har bir til hodisasiga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Har qanday asar davr va makon bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Tarixiy mavzudagi asar tilida muayyan zamon ruhini tashuvchi voqealarning qaysi makonda, qanday muhitda yuz berayotganini oydinlashtiruvchi leksik-grammatik birliklar ishtirok etadi. Makon va zamon birligi tushunchasi badiiy asargagina xos belgi emas. U har qanday matn ko'rinishiga taalluqlidir. Ushbu tamoyil asosida tahlil olib borilayotganda matn yozilgan davr, matnda ko'tarilgan mavzu va matn birliklarining tabiatiga qarab diaxron

va sinxron aspektlardan biri tanlanishi kerak. Buni yirik soʻz sanʼatkori Abdulla Qahhorning “Oʻgʻri” hikoyasidan olingan quyidagi parcha asosida koʻzdan kechiramiz.

*-Ha, sigiring yo 'qoldimi?*

*-Yo 'q... sigir emas, ho 'kiz, ola ho 'kiz edi.*

*Yo 'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho 'kiz edi?*

*-Ola ho 'kiz...*

*-Yaxshi ho 'kizmidi yo yomon ho 'kizmidi?*

*-Qo 'sh mahali...*

*-Yaxshi ho 'kiz birov yetaklasa ketaberadimi?*

*-Bisotimda hech narsa yo 'q...*

*-O 'zi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo 'yilmagan ekan-da. Nega yig 'lanadi? A? Yig 'lanmasin!.*

Bu suhbat qayerda, qaysi davrda, qanday odamlar oʻrtasida boʻlib oʻtayotganligini keltirilgan ushbu kichik parchadan ham bilsa boʻladi. Savol ham qisqa, javob ham. Savol berish tarzida kibr, mensimaslik, voqelikka arziyas bir narsaga qarayotgandek beparvo munosabat seziladi. Piching, kesatiq va masxara ohangi aniq aks etgan. Javobdan esa qahramonning soddaligi, faqirligi anglashiladi. Suhbat amin huzurida boʻlib oʻtyapti. Shunga muvofiq rasmiy nutq elementlaridan foydalanilgan.

Yana shuni ham eʼtiborda tutish zarurki, badiiy matnda zamonlar peripetiyasi, almashinuvi ham kuzatiladi. Muayyan bir matnning oʻzida voqealar xronologiyasida toʻgʻri ketma-ketlik emas, balki bir hozirgi zamon, bir oʻtmish zamon, hatto bir kelgusi zamon voqealari tasviri joy olishi mumkin. Shuning uchun badiiy matndagi retrospeksiya va prospeksiya munosabatlari hamda ularning ifodalanishida til vositalarining ishtiroki, aktuallashuvi bilan bogʻliq holatlarni aniqlash ham **lingvopoetik** tahlilning toʻliqligiga koʻmaklashadi.

3. Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida badiiy adabiyot tilining, xususan, tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili, uning turli koʻrinishlari va adabiy tilga munosabatini nazarda tutish ham yana bir tamoyildir. V.V.Vinogradov “Badiiy adabiyot tili haqida” (1959) nomli asarida taʼkidlaganidek, badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda uning turli tarmoqlanishi tarixidan va adabiy til tarixidan tamoman ajratilgan holda oʻrganishning mumkin emasligi shubhasiz. Umumxalq tili, uning turli hududiy va ijtimoiy koʻrinishlari bilan adabiy til oʻrtasidagi munosabatlar tabiatining oʻzgaruvchan boʻlganligi uchun badiiy adabiyot tilining umumxalq tili, shuningdek, adabiy til bilan aloqalari, hamkorligi ham tarixan oʻzgarib boradi. [Vinogradov, 1981, 195.] Shuning uchun badiiy matn lingvopoetik nuqtayi nazardan oʻrganilar ekan, undagi til birliklariga baho berganda bu birliklarning umumxalq tilidagi va adabiy tildagi maqomi ham inobatga olinishi, ular qiyoslanishi maqsadga muvofiq, shunday mazkur birliklarning matndagi badiiy qimmatini va

yo'zuvchi mahorati yanada aniq ko'rinadi. Masalan, muayyan badiiy matndagi bir so'zning arxaik, tarixiy yoki yangi so'zligini yoxud jargon ekanligini belgilash uchun, albatta, uni umumxalq va adabiy til leksikasi bilan qiyoslash zaruriyati tug'iladi. Morfologik shakllar, sintaktik birliklar, talaffuzga daxldor o'zgachaliklarning badiiy qimmatini ham umumxalq va adabiy tilga qiyoslamasdan tayin etish qiyin. Birgina *dudoq* so'zini olib ko'raylik. Bu so'z bugungi kunga oid badiiy matnda arxaizm va shunday so'z sifatida konnotativ ma'noli, badiiy ma'no ifodalash uchun qulay birlik. Buni, albatta, kunimizdagi adabiy tilga qiyosan belgilaymiz. Ammo mazkur so'z, aytaylik, Navoiy tilida arxaik emas, demakki, konnotativ ma'noli emas (albatta, o'sha davrga oid tegishli poetik matnda boshqa birliklar bilan munosabatda badiiy ma'no kasb etishi mumkin), buni ham umumxalq va adabiy til tarixiga ko'ra tasavvur etamiz.

Umumxalq tilining turli qatlamlariga xos birlik va shakllarning badiiy matnda qo'llanishi bilan bog'liq tekshirish yoki qahramonlarning o'zlari mansub bo'lgan toifa yoki hudud tilidan qay darajada isti'foda qilishini o'rganish kabilarda ham mazkur tamoyilga ko'ra ish tutish kerak bo'ladi.

Shuni ham aytish joizki, badiiy matnning ikki turini farqlash mumkin: 1) zamonaviy matn (bugun yaratilgan), 2) tarixiy matn (o'tmishda yaratilgan). Zamonaviy matnning ham o'z navbatida ikki turini kuzatish mumkin, ya'ni: a) bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn, b) tarixiy mavzudagi zamonaviy matn. Masalan, S.Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasi bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matn, M.Alining "Ulug' saltanat" romani tarixiy mavzudagi zamonaviy matn, Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni esa tarixiy matndir. Bu uch tur badiiy matnlardagi til birliklari, ularning o'zaro munosabati va harakati bir qancha o'ziga xos jihatlar bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham, ayniqsa, ana shunday farqli matnlarga yondashuvda, ularning lingvopoetik tahlilida mazkur uch hodisa – **badiiy til, umumxalq tili va adabiy til** tarixi munosabatlarini hisobga olish juda ham zarurdir.

Axborot nazariyasiga ko'ra, axborot-aloqa jarayoni "jo'natuvchi – axborot – qabul qiluvchi"dan iborat uchlikni o'z ichiga oladi. Bunda axborotni jo'natuvchi, masalan, til vositasida kodlaydi, qabul qiluvchi esa uni dekodlaydi va shu tarzda axborotni tushunadi. Adabiy aloqada ham shunday, ya'ni badiiy matnni tushunish uni dekodlash jarayonidir. [Arnold., 1973, 22-28.] Bugungi kun mavzusidagi zamonaviy matnda kod qabul qiluvchi uchun to'liq tanish, shuning uchun uni dekodlashda katta qiyinchilik paydo bo'lmaydi. Ammo tarixiy matnda kod eskirgan, qabul qiluvchiga yetarli darajada tanish emas, shuning uchun uni bugun dekodlashda qiyinchilik o'rta qiyinchilik chiqadi, ya'ni eski kodni bugungi kod "parol"lari bilan ochish qiyin. Ana shunga ko'ra, tarixiy matnlarning lingvopoetik tahlilida turli lug'atlarga juda katta ehtiyoj seziladi. Tarixiy mavzudagi zamonaviy matnlarni o'rganishda ham lug'atlarga ehtiyoj bo'ladi, lekin ijodkorning o'zi bu ehtiyojni imkon qadar qondirish uchun eskirgan kod "parol"larini turli qo'shimcha vositalar, izohlar, sharhlar yoki sinonimlar orqali berib borishga harakat qiladi. Masalan, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar"da har bir sahifa

ostida ayrim tushunarsiz soʻzlarning izohi berib borilgan. Masalan, *utta – u erda; siporish – topshiriq; muvofiqtatb’ – ta’bga mos, munosib; ashrof – e’tiborli kishilar, ulug’lar; mushovir – maslahatchi; musohib – hamsuhbat* kabi. Ana shuning uchun ham ijodkorlar asarlarining tiliga bagʻishlangan maxsus lugʻat tayyorlanishi lozimligi anglangan haqiqatdir. J.Lapasovning “Badiiy matn va lisoniy tahlil” deb nomlangan qoʻllanmasida muayyan bir badiiy matnning lugʻatini tuzish boʻyicha namunalar hamda lugʻat ustida ishlash boʻyicha muhim koʻrsatmalar berilgan. Olim toʻgʻri taʻkidlaganidek, “badiiy matnning lisoniy tahlilini turli-tuman lugʻatlarsiz tasavvur qilish qiyin. Lugʻat ustida ishlash oʻquvchi va talabalarning soʻz boyligini, ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirishning eng muhim omillaridan biri boʻlib hisoblanadi va shu lugʻat yordamida nafaqat soʻzlarning tub maʼnosini, balki koʻchma maʼnolari, har bir soʻzning qaysi til unsuri ekanligi, etimologiyasi (soʻzning kelib chiqish tarixi va tadrijiy rivoji), tarkibi, baʼzan esa grammatik shakli bilan yaqindan tanishiladi”. [Lapasov, 1995, 52.]

Anglashiladiki, ayniqsa, tarixiy matnlar va, shuningdek, tarixiy mavzudagi zamonaviy matnlarning lingvopoetik tahlilini umumxalq tili va adabiy til tarixisiz tasavvur etish mushkul.

4. Lingvopoetik tahlilda badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik, butunlik sifatida yondashmoq lozim. Eng avvalo, badiiy matndagi badiiy mazmun yoki badiiy mazmunlar silsilasi – asarning gʻoyasi, asosiy konsepti aniqlab olinishi maqsadga muvofiq. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili, demakki, talqinining pirovard maqsadi ana shu konseptning ifodalanishida lisoniy vosita va usullarning faoliyatini oʻrganish ekan, badiiy matnga yaxlit estetik butunlik sifatida yondashuv favqulodda muhim tamoyil sifatida qimmatga ega. Lingvopoetik tahlil til sathlaridan muayyan biri boʻyicha amalga oshiriladimi yoki kompleks olib boriladimi, baribir, lisoniy vositalarning mazkur konseptni ifodalashdagi ishtirokini baholash asosiy jihatdir. Masalan, Choʻlponning “Kecha va Kunduz” nomli romanini leksik-semantik jihatdan tahlil qilamiz, deylik. Asardagi lugʻaviy birliklar (ayrim soʻzlar, iboralar) ajratib olinadi. Lugʻaviy birliklar asar badiiyatiga qay darajada xizmat qilishi, anʼanaviy yoki individual ekanligi aniqlanadi. Matn komponentlarining birikish usullari alohida oʻrganiladi. Bularning bari, albatta, umumiy konsept fonida olib boriladi.

Tilning barcha sohaloriga xos birliklar va ularning muayyan bir asarda qoʻllanishini matnning umumiy badiiy mazmuni, janri, tarkibiy tuzilishi bilan oʻzaro bogʻliqlikda olib kompleks oʻrganish mumkin. Bu xildagi tahlil umumfilologik yoʻnalish, mazmun va xarakter kasb etadi. Shuning uchun matnni tahlil qilishdan avval adabiyotshunoslik va tilshunoslik bilan aloqador sohalarning tamal qonuniyatlaridan albatta xabardor boʻlish kerak. Bunday tahlil xususiylikdan umumiylikka oʻtish tamoyiliga muvofiq olib boriladi. Kompleks tahlil biror bir ijodkorga bagʻishlangan boʻladi. Bunday tahlilni bir asarni turli sathlar boʻyicha yoki bir necha asarni bir sath boʻyicha oʻtkazish mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriyning «Oʻtkan kunlar» romani

lingvopoetikasi (til sathlari bo'yicha). Yoki Abdulla Qodiriy asarlari lingvopoetikasi. Bunda adib qalamiga mansub barcha asarlarning lingvopoetik xususiyatlari tekshiriladi va natijalar umumlashtiriladi. Bu oson ish emas. Shuningdek, bir yoki ikki kishining ishi ham emas. Adib asarlarini har taraflama tekshirish, tahlil qilish, shu kungacha qilingan barcha ishlarni bir joyga to'plash, tasniflash, indeksli ma'lumotlar bazasini yaratish, zaruriy lug'atlarni tayyorlash va boshqa ishlarni amalga oshirish jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan lingvopoetikaning faoliyat doirasiga kiradi. Adabiyotshunoslikda B.Fransning V.Shekspir asarlari tiliga bag'ishlangan "Shekspir grammatikasi" ("Shakespeare grammatik") deb atalgan yirik hajmli asari alohida e'tiborga molik ish sifatida e'tirof qilinadi. Unda shoir ijodi tilning barcha sathlari bo'yicha tahlilga tortiladi. Shu bilan birga ijtimoiy tuzum, shoirning falsafiy dunyoqarashi, hayot tarzi, shoir zamondoshlarining shoirga munosabati yoki shoirning o'z zamondoshlariga munosabati, davr bilan bog'liq estetik tafakkur tarzi va hokazolar haqida ham ma'lumotlar berib boriladi. Mazkur tadqiqotdan faqatgina shoir asarlarining tili emas, balki o'sha davr tili haqida ham noyob ma'lumotlarni olish mumkin. [Wellek R. 1993.] Lekin shuni unutmaslik kerakki, badiiy asar tom ma'noda estetik voqelikdir. U qanday tahlil qilinishidan qat'i nazar, asarning estetik hodisa sifatidagi mohiyatini, uning yaxlitligini nazardan qochirmalik kerak. Aks holda lingvopoetik tahlil o'z ma'nosini yo'qotadi, demakki, tahlildan kuzatilgan asosiy maqsadga erishib bo'lmaydi.

5. Lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash ham muhim tamoyillardandir. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin. O'tgan asrning 30-yillarida atoqli rus tilshunosi L.V.Shcherba matn lingvistik talqinining asosiy vazifasi "adabiy asarning g'oyasi va u bilan bog'liq emotsional mazmuni ifodalaydigan til vositalarini ko'rsatish" ekanligini ta'kidlagan edi. [Novikov, 1979, s. 8.]

Masalan, poetik aktuallashtirilgan so'zni olib ko'raylik. O'zbek tilida *o'ramoq*, *burkamoq*, *chulg'amoq*, *chirmamoq* tarzidagi ma'nodosh so'zlar qatori mavjud bo'lib, *burkamoq* so'zida *o'ramoq* so'ziga nisbatan o'rash belgisi anchayin ortiq, ya'ni uning ma'no qurilishida «hech bir ochiq joyini qoldirmay» degan qo'shimcha ifoda semasi mavjud. Shuning uchun ham mahoratli adib Cho'lpon quyidagi parchada tegishli badiiy mazmun ifodasi uchun *o'ramoq* so'zini emas, balki ayni *burkamoq* so'zini tanlash orqali tasvirdagi aniqlik va ekspressivlikni oshirishga muvaffaq bo'lgan: *Hali tuzuk-quruq odam qatoriga kirib etmagan bu qizchani katta xotinlarning oriyat paranjisiga burkaganlar, paranjining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo'ltig'ini to'lg'azardi* ("Kecha va kunduz" romani). Parchadagi ikkinchi jumla bu so'zdagi ekspressiya va estetik ta'kidni yanada kuchaytirgan. [Yo'ldoshev, 2002, 11-b.] Ayni kontekstda *burkamoq* so'zi alohida badiiy ma'no bilan aktuallashtirilgan. Shuning uchun ham bu so'zni mazkur sinonimlar bilan yoki boshqa biror so'z bilan almashtirib

bo'lmaydi. Yoki yana bir misol, Abdulla Qahhorning "Anor" hikoyasidagi mana bu parchaga e'tibor bering:

*Yo qudratingdan, indamaydi-ya! – dedi Turobjon keltirgan matoini titkilab, – mana, chaynab ko'r! Ko'rgin, bo'lmasa, innaykeyin degin...*

"Ayni o'rinda *narsa* so'zi emas, balki atayin *mato* so'zi qo'llangan. *Narsa* so'zi uslubiy jihatdan xolis, *mato* so'zi esa ayni ma'nosi bilan xolis emas, ya'ni unda kamsitish bilan bog'liq ma'no qirrasini mavjud, bu ma'no qirrasini *titkilab* fe'l shakli bilan yana ham ta'kidlangan. Anorga boshqorong'i bo'lgan va erining anor olib kelishini intiq kutib o'tirgan xotin nazarida, bu-ku arining uyasi – mumli asal ekan, toza asalning o'zi ham narsa emas faqat *mato*. Hikoyaning umumiy intonatsiyasi, voqea rivoji ayni o'rinda *mato* so'zini boshqa sinonimi bilan almashtirishga imkon bermaydi". [Mirtojiev M., 1992, 88-b.] Hikoyadagi badiiy mazmunning to'liq ifodalanishida boshqa vositalar bilan bir qatorda ayni so'z faqat mazkur leksik ma'nosinigina reallashtirib qolmasdan bo'liq badiiy ma'no ham kasb etgan.

Bir qarashda, bu tamoyil, ya'ni poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash tamoyili badiiy matnning yaxlitligini nazardan qochirganday tuyuladi. Ammo aslida bunday emas, poetik aktuallashgan til vositalari aniqlanib, ular alohida-alohida tahlil, ya'ni analiz qilinadi ekan, shubhasiz, bu analiz yaxlit badiiy matn kontekstida olib boriladi. Demak, oxir-oqibatda sintezni nazarda tutadi, ya'ni poetik aktuallashgan til vositalari badiiy mazmun ifodasidagi ishtirokiga ko'ra analiz qilinadi va pirovardida olingan xulosalar badiiy matndagi konsept doirasida sintezlanadi, birlashtiriladi, umumlashtiriladi. Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalari ana shu tarzda baholanadi. Ba'zi tadqiqotchilar bunday tahlilda uch bosqichni farqlash mumkinligini aytadilar. Avvalo, har qanday malakadagi til egasi uchun ham anglashilarli bo'lgan an'anaviy-lisoniy tahlil bosqichi, ya'ni standart qurilishdagi birliklar va ma'nolar, shuningdek, badiiy nutqda qo'llanadigan odatdagi usul va til birliklari qayd etiladi. Ikkinchi bosqichda esa mazkur birliklar, ma'nolar va hodisalarning badiiy mazmun ifodasidagi ishtiroki aniqlanadi, mazkur vositalarning potensial badiiy imkoniyatlarining qay darajada namoyon bo'layotganligi belgilanadi. Nihoyat, uchinchi bosqichda bu vositalarning barchasi bir-biriga estetik nisbatlanadi va bu nisbatning yozuvchi niyatining ro'yobiga xizmati baholanadi. [Struktura..., 1985, s.71-72.] Ana shu tariqa analiz va sintez birligi asosida badiiy matnning lingvistik va badiiy mohiyati ochiladi, badiiy matnning yozuvchi niyatiga yaqin yoki uyg'un talqini yuzaga keladi.

Yana shuni ham aytish joizki, lingvopoetik tahlilning poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash tamoyili asosida poetik aktual lisoniy birliklar indeksini tuzish ham mumkin. Bu tamoyil asosidagi lingvopoetik tahlil natijasi o'laroq asar badiiyati uchun xarakterli bo'lgan birliklar (masalan, iboralar, sinonimlar, antonimlar yoki epitetli birikmalar, metonimiya, metaforalar, o'xshatishlar kabi) aniqlanadi. Keyin ular alifbo tartibida terib chiqiladi. Bunday lug'at-indekslar muayyan yozuvchining lisoniy

mahoratini yoritishda yoki umuman badiiy adabiyotdagi lingvopoetik qonuniyatlarni o'rganishda faktik material vazifasini o'taydi.

6. Badiiy mazmunning ifodalanishida badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash ham lingvopoetik tahlilning tamoyillaridan yana biridir. Masalan, didaktik matn yoki yosh bolalarga mo'ljallangan boshqa matnlarda eksplitsitlik darajasi yuqori bo'lsa, haqiqiy badiiy barkamol matnlarda implitsitlik darajasi sezilarli ortiq bo'ladi. Bunda badiiy mazmunning ochiq yoki yashirin ifodalanishidagi o'ziga xosliklarni ochish barobarida badiiy matnning lisoniy va badiiy-estetik qimmatini baholash imkoniyati tug'iladi. Aytish kerakki, bu tamoyil bo'yicha ish ko'rilar ekan, matnning pragmatik, xususan, presuppozitsion jihatlari, ayni paytda ular bilan bog'liq ekstralingvistik holat va hodisalar ham, albatta, inobatga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Zotan, implitsit ifodalarning, ayniqsa, badiiy matndagi ana shunday ifodalarning to'g'ri anglanishi va talqin qilinishida pragmatika, presuppozitsiyalar favqulodda muhim o'rin tutadi.

7. Badiiy matndagi intertesktuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash ham lingvopoetik tahlil tamoyillari sirasiga kiradi. Matn ichida qo'llanilgan o'zga matn ko'rinishlarini (nazira, taqlid, naql, hadis, rivoyat, miflar, afsonalar, didaktemalar, u yoki bu ijodkorning asari yoki parchasi kabi) aniqlash va ularning asar mazmuni bilan qay darajada uyg'unligi, badiiy mazmun ifodasidagi o'rni, asosiy matn bilan lisoniy va semantik bog'lanishidagi muhim holatlar haqida fikr yuritish badiiy matn lingvopoetikasini ochishda favqulodda zarurdir.

Xullas, ana shu umumiy tamoyillar asosida lingvopoetik tahlil olib borilganda, estetik butunlik sifatidagi badiiy matnning mohiyati va uni tuzuvchining mahoratini xolis baholash mumkin bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Wellek R. Edebiyat teorisi. – Izmir. Akademi kitabevi. 1993.
2. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. –Л.: Просвещение, 1973.
3. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – М.: Высшая школа, 1981.
4. Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2005.
5. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2008. – Б. 156-168
6. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
7. Одинцов В.В. Стилистика текста. – М.: Наука, 1980.
8. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – М.: Наука, 1985.

9. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
10. Хованская З.И. Анализ литературного произведения в современной французской филологии. – М.: Высшая школа, 1980.